MILLIY AMALIY BEZAK SAN'ATI NAMUNALARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNING DIZAYNERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARINING AYRIM QIRALARI

Tasviriy va amaliy bezak san'ati mutaxasisligining 1-bosqich magistiri
Astankulova Feruza Olimovna.
Buxoro Davlat Universiteti. O'zbekiston Respublikasi

ANNOTATSIYA

Maskur maqolada milliy amaliy bezak san'ati namunalarini raqamlashtirish asosida talabalarning dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini yoritgan.Milliy naqshlar, an'anaviy bezak elementlari va xalq amaliy san'ati namunalarini raqamli texnologiyalar yordamida o'rganish, saqlash hamda zamonaviy dizayn jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.Shuningdek, talim jarayonida raqamli resurslardan foydalanish orqali talabalarning ijodiy fikrlashi,kompozitsion tafakkuri va mustaqil loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlariga e'tibor qaratilgan.

KALIT SO'ZLAR: milliy amaliy bezak san'ati,raqamlashtirish,dizaynerlik kompetensiyasi,raqamli texnologiyalar,milliy naqshlar,ijodiy fikrlash,tasviriy san'at ta'limi.

АННОТАЦИЯ В данной статье рвссматриваются вопросы развития дизайнерских компетенций студентов на основе цифровизации образцов национального, декоративно-прикладного искусства. Анализируются возможности изучения, сохранения и применения национальных орнаментов, традиционых декоративных элементов и образцов народного искусства с использованием цифровых технологий в современном дизайне. Особое внимание уделяется методам развития творческого мышления, композиционного мышления и навыков самостоятельного проектирования студентов посредством использования цифровых ресурсов в образовательном процессе.

Ключевые слова: национальное декоративно-прикладное искусство, цифровизация дизайнерские компетенции, цифровые технологии, национальные орнаменты, творческое мышление художественное образование.

ABSTRACT This article explores methods for developing student's design competencies through the digitalization of national applied decorative art. Is examines the possibilities of studying, preserving, and applying national ornaments traditional decorative elements, and folk art samples in contemporary desing using digital technologies. Particular attention is paid to methods that develop student's creative thinking, compositional skills, and independent desing abilities through the integration of digital resources into the educational process.

Keywords: national applied decorative art, digitalization, design competencies, digital technologies, national ornaments, creative thinking, art education.

O'zbek xalqining milliy amaliy bezak san'ati asrlar davomida shaklangan boy madaniy meros hisoblanadi. Naqqoshlik , ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik va kulolchilik kabi san'at turlari o'ziga xos naqshlari va kompozitsiyalari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ushbu merosni saqlash, o'rganish va yosh avlodga yetkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy amaliy bezak san'ati namunalarini raqamlashtirish naqsh va bezaklarni elektron shaklda saqlash,ularni tasniflash hamda ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkonini beradi. Raqamli tasvirlar,elektron kataloglar va grafik dasturlar yordamida talabalar milliy naqshlarning tuzulishi, ranglar uyg'unligi, ritmi va kompozitsion xususiyatlarini chuqur o'rganiladi.



Amaliy san’at ishlaridan namunalar.

Ushbu jarayonda talabalar an’anaviy bezak elementlarini zamonaviy dizayn loyihalariga moslashtirish, mustaqil kompozitsiyalar yaratish va ijodiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantiradilar. Amaliy mashg’ulotlarda milliy naqshlardan foydalanib, zamonaviy grafik va dekorativ loyihalar ishlab chiqish samarali metotlardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish milliy san’at namunalarining yo’qolib ketishining oldini olish ularni keng ommaga yetkazish va ta’limda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa talabalarning kasbiy tayyorgarligi hamda dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy amaliy bezak san’ati namunalarini raqamlashtirish zamonaviy tasviriy san’at ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni amaliy

mashg‘ulotlarga joriy etish orqali talabalarning milliy merosga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy tafakkuri va dizaynerlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shu sababli milliy bezak san’ati namunalarini elektron bazalarda jamlash va ularni ta’lim jarayonida muntazam qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Axborot texnologiyalaridan san’at ta’limida foydalanish o‘quv materiallarini ko‘rgazmali taqdim etish, tasvirlarni qayta ishlash va kompyuter grafikasi bilan ishlash imkonini beradi. Raqamli vositalar yordamida milliy naqshlarni elektron shaklda saqlash, ularni tahlil qilish va zamonaviy dizayn loyihalarida qo‘llash mumkin.

Talabalar milliy bezak elementlarini grafik dasturlar yordamida qayta ishlash orqali ranglar uyg‘unligini sinab ko‘rish, naqshlarni takomillashtirish va yangi kompozitsiyalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shunday qilib,maskur mavzu zamonaviy baddiy-pedagogik tizimida muhim o’rin egallaydi.

Adabiyotlar.

1.Abdullayev S.F. Васточная миниатюра в система высшего художественно-педагогического образования -Москва 1996.

2. Shoyoqubov Sh. O‘zbek xalq amaliy-bezak san’ati. -Toshkent: O‘zbekiston, 2009. - 135 b.

3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi.- Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. — 164 b.

4. Samigova G., G‘ofurov M.K., Muhamadiyev A.Sh., Kurbanova A.T. San’at ta’limida axborot texnologiyalari. -Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. - 240 b.

5. Hakimov A. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации: вышивка, керамика, торевтика. - Toshkent: UNESCO vakolatxonasi,2013.-194b

6. Tuqsanova V.R. Traditional Applied Art.- Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2020.